

## XITOIY TILSHUNOSLIGIDA FE'L TRANSPOZITSIYASINING NAZARIY ASOSLARI VA GRAMMATIK TALQINI

Ochilova Hilola Husan qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti katta o'qituvchisi.

[hilolaochilova90@gmail.com](mailto:hilolaochilova90@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19074864>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xitoy tilshunosligida fe'l transpozitsiyasi hodisasining nazariy asoslari va uning grammatik talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotda fe'lning boshqa so'z turkumlari funksiyasida qo'llanishi, xususan, otlashuv, boshqa sintaktik vazifalarga o'tish jarayonlari xitoy tilshunoslari qarashlari asosida o'rganiladi. Shuningdek, xitoy tilidagi fe'llarning konversiya jarayoni, funksional-semantik xususiyatlari va ularning gap tarkibidagi grammatik roli ilmiy jihatdan yoritiladi. Maqolada xitoy tilshunosligida transpozitsiya masalasiga doir mavjud nazariy qarashlar umumlashtirilib, fe'l transpozitsiyasining morfologik va sintaktik xususiyatlari misollar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida xitoy tilida fe'lning boshqa so'z turkumlariga o'tishi ko'pincha kontekst, sintaktik muhit va semantik omillar bilan bog'liqligi aniqlanadi.

**Kalit so'zlar:** xitoy tili, transpozitsiya, fe'l transpozitsiyasi, konversiya.

Xitoy tilshunosligida fe'l transpozitsiyasi hodisasi odatda 动词转类, 词类活用 hamda 动词名词化 tushunchalari orqali izohlanadi. Analitik tipga mansub bo'lgan xitoy tilining grammatik qurilishi so'z turkumlari chegaralarining qat'iy bo'lmasligi bilan tavsiflanadi; natijada birlikning turkumga mansubligi ko'pincha morfologik belgilar bilan emas, balki uning sintaktik vazifasi orqali belgilanadi.

Ushbu funksional yondashuvni asoslab bergan olimlardan biri 吕叔湘 Lǚ Shūxiāng bu masala haqida shunday yozadi: “汉语里词类的界限并不十分分明, 词往往是根据它在句子中的功能来确定词类的。” Ya'ni, “Xitoy tilida so'z turkumlari o'rtasidagi chegaralar qat'iy emas, so'zning qaysi turkumga mansubligi ko'pincha uning gapdagi funksiyasi orqali aniqlanadi.” (吕叔湘, 《汉语语法分析问题》, 北京: 商务印书馆, 1980年, 第23页).

Bu fikr fe'l transpozitsiyasining xitoy tilida funksional-sintaktik hodisa ekanini aniq ko'rsatadi.

Xitoy an'anaviy grammatika maktabida fe'l transpozitsiyasi masalasi, avvalo, 词类活用 (so'z turkumlarining faol qo'llanishi) nazariyasi doirasida izohlangan. Bu yondashuvga ko'ra, so'zlar nutq jarayonida o'zining dastlabki turkumiga xos bo'lmagan vazifani bajarishi mumkin.

Mazkur yondashuvning asoschilaridan biri 黎锦熙 quyidagicha yozadi: “词类活用是汉语的一种常见现象, 一个词在特定语境中可以临时改变词类功能。” Ya'ni, “So'z turkumlarining faol qo'llanishi xitoy tilida keng tarqalgan hodisa bo'lib, so'z muayyan kontekstda vaqtincha o'z so'z turkumi funksiyasini o'zgartirishi mumkin.” (黎锦熙, 《新著国语文法》, 北京: 商务印书馆, 1956年, 第45页). Bu yerda “vaqtincha” (临时) tushunchasi fe'l transpozitsiyasining lug'aviy emas, nutqiy xarakterga ega ekanini ko'rsatadi.

Xitoy tilshunosligida fe'l transpozitsiyasining nazariy asosi sifatida so'z turkumlari nisbiyligi (词类相对性) g'oyasi ilgari suriladi.

Bu yondashuvga ko'ra, xitoy tilida so'z turkumlari qat'iy grammatik kategoriya emas, balki funksional tushuncha hisoblanadi. Bu fikrni aniq shaklda ifodalagan olimlardan biri 王力 bo'lib, u shunday yozadi: “汉语的词类不是绝对的，而是相对的，很多词可以兼属不同词类。” Ya'ni, “Xitoy tilida so'z turkumlari mutlaq emas, balki nisbiydir; ko'plab so'zlar bir vaqtning o'zida bir nechta so'z turkumiga mansub bo'lishi mumkin.” (王力, 《中国现代语法》, 北京: 中华书局, 1958年, 第41页). Bu fikr fe'l transpozitsiyasini xitoy tilida istisno emas, balki tizimli hodisa sifatida tushuntiradi.

Xitoy tilshunosligida fe'l transpozitsiyasining eng ko'p o'rganilgan turi — fe'lning otlashuvidir. Bu jarayonda fe'l predmet yoki abstrakt tushuncha sifatida qo'llanadi. Ushbu masalani ilmiy jihatdan eng tizimli yoritgan olimlardan biri — 朱德熙 hisoblanadi. U so'z turkumlarini formal emas, balki funksional kategoriya sifatida talqin qiladi. Zhu Dexi shunday yozadi: “动词是否转为名词，并不取决于形式，而主要取决于它在句法结构中的地位。”

Ya'ni, “Fe'lning otga o'tishi uning tashqi shakliga emas, balki asosan sintaktik tuzilmadagi o'rniga bog'liq.” (朱德熙, 《语法讲义》, 北京: 商务印书馆, 1982年, 第41页). Bu ta'rif xitoy tilida fe'l transpozitsiyasining nol shaklli (零形式转类) ekanini aniq isbotlaydi.

Misol (Zhu Dexi talqiniga mos): 研究很重要。Tadqiqot juda muhim. Bu gapda 研究 fe'l shaklan o'zgarmagan, ammo ega vazifasida kelib, otlashgan, ko'rinib turganidek, faqat gapdagina transpozitsiya voqelanmoqda.

Bu masalaga bag'ishlangan tadqiqotlardan yana birida 马真 quyidagilarni ta'kidlaydi: “动词名词化以后，动作不再被看作过程，而是被当作概念来理解。” Ya'ni, “Fe'l otlashgach, harakat jarayon sifatida emas, balki tushuncha sifatida idrok etiladi.” (马真, 《现代汉语语法研究》, 北京: 北京大学出版社, 2005年, 第52页). Misol: 学习是成功的关键。O'rganish muvaffaqiyatning kalitidir.

Fe'lning transpozitsiyaga uchrashida 的 yordamchi ko'rsatkichi muhim rol o'ynaydi. U fe'lni aniqlovchi yoki nominativ birlik sifatida talqin qilish imkonini beradi. Bu masalada 刘月华 quyidagi fikrni bildiradi: “的”结构使动词获得修饰名词的功能，从而实现词类转换。”

Ya'ni, “的” konstruksiyasi fe'lga otni aniqlash funksiyasini berib, so'z turkumi almashuvini yuzaga keltiradi.” (刘月华, 《实用现代汉语语法》, 北京: 商务印书馆, 2001年, 第78页) Misol: 他写的书很有名。(U yozgan kitob juda mashhur.)

Fe'l transpozitsiyasi natijasida hosil bo'lgan birliklar ko'pincha miqdor bildiruvchi so'zlar bilan birika oladi, bu esa ularning otlashganligini isbotlaydi. Bu holat haqida 刘丹青 shunday yozadi: “动词名词化后可以接受数量修饰，这是其名词属性的重要标志。” Ya'ni, “Fe'l otlashgach, miqdoriy aniqlovchilarni qabul qila oladi, bu uning ot xususiyatining muhim belgisi hisoblanadi.” (刘丹青, 《现代汉语词类问题》, 北京: 商务印书馆, 2005年, 第121页). Misol: 多次讨论并未解决问题。(Bir necha bor muhokama qilish muammoni hal etmadi.)

Shuningdek, otlashgan fe'llar 定语 (aniqlovchi) bilan keng birika oladi. Bu esa fe'lning sintaktik jihatdan to'liq nominal birlikka aylanganini ko'rsatadi. Bu jihatni 邢福义 quyidagicha izohlaydi: “转类后的动词在定语结构中表现出典型的名词行为。” Ya'ni, “Transpozitsiyaga uchragan fe'l aniqlovchi konstruksiyalarda tipik ot xatti-harakatini namoyon qiladi.” (邢福义, 《汉语句法学》, 武汉: 华中师范大学出版社, 2006年, 第158页).

Otlashgan fe'llar odatda 被 passiv konstruksiyalarida ishlatilmaydi. Bu fe'lning predikativlikdan chiqib ketganini ko'rsatadi. Bu holatni 范晓 quyidagicha tushuntiradi: “名词化动词通常不能进入被字句。” Ya'ni, “Otlashgan fe'llar odatda 'bei' passiv konstruksiyasiga kira olmaydi.” (范晓, 《汉语被字句研究》, 北京: 商务印书馆, 2008年, 第66页).

Xitoy tilida otlashgan fe'llar odatda 了, 过, 着 kabi aspekt ko'rsatkichlari bilan kelmaydi. Bu hodisa fe'lning grammatik xususiyatlari neytrallashganini ko'rsatadi. Bu masala bo'yicha 刘月华 quyidagilarni qayd etadi: “名词化动词通常不能带体标记, 如‘了、过、着’。” Ya'ni, “Otlashgan fe'llar odatda 'le, guo, zhe' kabi aspekt ko'rsatkichlarini qabul qilmaydi.” (刘月华, 《实用现代汉语语法》, 北京: 商务印书馆, 2001年, 第102页). Ushbu holatni ro'y berishi yani fe'lning grammatik neytrallashuvini 王力 quyidagicha yozadi: “名词化的动词一般不带时态和体标记。Ya'ni, “Otlashgan fe'llar odatda zamon va aspekt ko'rsatkichlarini qabul qilmaydi.” (王力, 《中国现代语法》, 北京: 中华书局, 1958年, 第134页).

Yana bir muhim muammolardan biri — transpozitsiya bilan leksiklashuv (词汇化) o'rtasidagi chegara masalasidir. Ba'zi fe'llar vaqt o'tishi bilan doimiy otga aylanadi. Bu masalada 沈家煊 quyidagi fikrni bildiradi: “部分转类形式在长期使用中会词汇化, 成为固定名词。” Ya'ni, “Ayrim transpozitsiyalangan shakllar uzoq muddatli qo'llanish jarayonida leksiklashib, mustahkam otga aylanadi.” (沈家煊, 《词汇化理论研究》, 北京: 商务印书馆, 2006年, 第96页). Ayrim fe'l birliklari doimiy otga aylanganda, ularni transpozitsiya emas, balki derivatsiya sifatida baholash taklif etiladi. Bu masalada 陆俭明 shunday yozadi: “当转类形式失去语境依赖时, 就应当视为词汇化结果。” Ya'ni, “Agar so'z turkumi almashgan shakl kontekstga bog'liqligini yo'qotsa, u leksiklashuv natijasi sifatida baholanishi lozim.” (陆俭明, 《现代汉语词类问题研究》, 北京: 商务印书馆, 2003年, 第58页).

Zamonaviy xitoy grammatikasida fe'l transpozitsiyasi nominal domen (名词域) tushunchasi orqali ham izohlanadi. Fe'l otlashganda u fe'l domenidan chiqib, nominal domen tarkibiga kiradi. Bu yondashuv tarafdorlaridan biri 陆俭明 shunday yozadi: “动词一旦进入名词域, 就不再具备谓词的语法特征。” Ya'ni, “Fe'l nominal domen tarkibiga kirgan zahoti, predikatga xos grammatik xususiyatlarni yo'qotadi.” (陆俭明, 《汉语句法中的名词域》, 北京: 商务印书馆, 2004年, 第73页). Bu nazariya fe'l transpozitsiyasini domenlararo o'tish sifatida tushuntiradi. Ushbu holatni shuningdek predikativlikdan chiqish bilan ham bog'lab izohlanadi. Fe'l ega yoki aniqlovchi vazifasiga o'tganda, predikativlik xususiyatini yo'qotadi. Bu borada 高名凯 yozadi: “动词一旦失去谓词地位, 就进入转类范畴。” Ya'ni, “Fe'l predikat mavqeini yo'qotgan zahoti, u so'z turkumi almashuvi doirasiga kiradi.” (高名凯, 《汉语语法论》, 上海: 上海教育出版社, 1964年, 第119页).

Fe'l transpozitsiyasi jarayonida kuzatilayotgan semantik rollarning o'zgarishi deganda fe'lga xos bo'lgan agent, harakat, jarayon kabi semantik rollar zaiflashib, hatto yo'qolishini nazarda tutadi. Bu holat semantik neytrallashuv sifatida baholanadi.

Bu masalani tahlil qilgan 马真 shunday yozadi: “动词转类后, 其施事和动作意义会被弱化。” Ya'ni, “Fe'l transpozitsiyaga uchragach, undagi bajaruvchi va harakat ma'nolari zaiflashadi.” (马真, 《现代汉语语义研究》, 北京: 北京大学出版社, 2007年, 第84页).

Xitoy tilshunosligida muhim muammolardan yana biri — fe'l transpozitsiyasidan so'ng hosil bo'lgan birlikning referensiallik darajasidir. Otlashgan fe'l ko'pincha aniq voqeaga emas, balki umumiy tushunchaga ishora qiladi. Bu masala yuzasidan 张伯江 quyidagi fikrni bildiradi: “动词名词化通常导致指称性的提高和事件性的降低。” Ya'ni, “Fe'ning otlashuvi odatda referensiallikning oshishi va voqea xususiyatining pasayishiga olib keladi.” (张伯江, 《汉语名词化研究》, 北京: 北京语言大学出版社, 2011 年, 第 94 页). Misol: 失败是成功之母。(Muvaffaqiyatsizlik muvaffaqiyatning onasidir.) Bu yerda 失败 aniq harakat emas, balki umumiy tushunchani bildiradi.

Xitoy tilshunosligida fe'l transpozitsiyasining uslubiy tabaqalanishi ham alohida tadqiq qilingan. Ayniqsa, ilmiy va rasmiy uslubda fe'ning otlashuvi yuqori darajada uchraydi. Bu haqda 胡裕树 shunday yozadi: “书面语中动词名词化现象明显多于口语。” Ya'ni, “Yozma nutqda fe'ning otlashuvi og'zaki nutqqa nisbatan ancha ko'p uchraydi.” (胡裕树, 《现代汉语》, 北京: 高等教育出版社, 1994 年, 第 214 页).

So'nggi yillarda xitoy tilshunosligida fe'l transpozitsiyasi kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham izohlanmoqda. Bu yondashuvga ko'ra, fe'ning otlashuvi inson tafakkurida harakatni obyekt sifatida konseptualizatsiya qilish bilan bog'liq. Bu fikrni 张伯江 quyidagicha ifodalaydi: “动词名词化反映了人类将事件视为实体的认知方式。” Ya'ni, “Fe'ning otlashuvi insonning voqeani obyekt sifatida idrok etish kognitiv usulini aks ettiradi.” (张伯江, 《认知语法与汉语》, 北京: 北京语言大学出版社, 2010 年, 第 133 页).

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. 吕叔湘, 《汉语语法分析问题》, 北京: 商务印书馆, 1980 年, 第 23 页.
2. 黎锦熙, 《新著国语文法》, 北京: 商务印书馆, 1956 年, 第 45 页.
3. 王力, 《中国现代语法》, 北京: 中华书局, 1958 年, 第 41 页.
4. 朱德熙, 《语法讲义》, 北京: 商务印书馆, 1982 年, 第 41 页.
5. 马真, 《现代汉语语法研究》, 北京: 北京大学出版社, 2005 年, 第 52 页.
6. 刘月华, 《实用现代汉语语法》, 北京: 商务印书馆, 2001 年, 第 78 页.
7. 刘丹青, 《现代汉语词类问题》, 北京: 商务印书馆, 2005 年, 第 121 页.
8. 邢福义, 《汉语句法学》, 武汉: 华中师范大学出版社, 2006 年, 第 158 页.
9. 张伯江, 《汉语名词化研究》, 北京: 北京语言大学出版社, 2011 年, 第 94 页.